Iqtisodiy sud O'zR IPKning 84-moddasiga muvofiq komissiyaviy ekspertiza, 85-moddasiga muvofiq esa kompleks ekspertiza tayinlashi mumkin. Xususan, "komissiyaviy ekspertiza o'tkazilayotganda ekspertlarning har biri tekshirishlarni to'liq hajmda o'tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi. Ekspertlar umumiy fikrga kelganidan so'ng birgalikdagi xulosani yoki xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi" [4]; "kompleks ekspertiza ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir nechta tekshirish o'tkazish yo'li bilangina aniqlash mumkin bo'lgan hollarda tayinlanadi" [4]. Mazkur Kodeksning 86-moddasiga muvofiq: "ekspert yoki ekspertlar komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi" [4].

O'zR IPKning 80-moddasiga muvofiq: "ekspertiza tayinlash to'g'risidagi ajrimda: ekspertizani tayinlash asoslari; ekspertning familiyasi, ismi va otasining ismi yoki ekspertiza o'tkazilishi lozim bo'lgan ekspertiza muassasasining nomi; ekspert oldiga qo'yilgan masalalar; ekspert ixtiyoriga taqdim etiladigan materiallar va hujjatlar; ekspertizani o'tkazish va sudga xulosani taqdim etish kerak bo'lgan muddat ko'rsatiladi" [4]. Shuningdek, ajrimda ekspert-buxgalterning qasddan yolg'on xulosa berganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirilganligi ham ko'rsatiladi.



Shu bilan birga, mazkur moddaga muvofiq: “ishda ishtirok etuvchi shaxslar: o‘zlari ko‘rsatgan shaxslarni ekspert sifatida jalb etish to‘g‘risida ekspertizani muayyan ekspertiza muassasasida o‘tkazish haqida iltimosnoma bilan murojaat qilishga, ekspertni rad etish to‘g‘risida arz qilishga; ekspertiza tayinlash haqidagi ajrimga ekspert oldiga qo‘yilgan masalalarga qo‘shimcha masalalar kiritish to‘g‘risida iltimosnoma bilan murojaat qilishga; ekspertga tushuntirishlar berishga; ekspert xulosasi bilan yoki xulosa berishning imkoni bo‘lmaganligi haqidagi xabar bilan tanishishga; qo‘shimcha yoxud takroriy ekspertiza o‘tkazish haqida iltimos qilishga haqli” [4].

O‘zR FPKning 84-moddasiga muvofiq: “ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi sud ajrimida qanday masalalar bo‘yicha ekspertlarning xulosasi talab qilinayotganligi va ekspertiza o‘tkazish kimga topshirilayotganligi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Ekspertlar tayinlanayotganda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrini inobatga oladi” [5].

Shunday qilib, sud ekspertizasini, xususan SBEni ham, tayinlashning normativ-huquqiy asoslari tegishli protsessual qonunchilik normalari bilan belgilangan. Lekin, shunga qaramasdan, amaliyotda bu masalada ayrim tashkiliy-uslubiy bo‘shliqlar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifatida dialektika, umumilmiy metodlardan: ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash kabi nazariy metodlar; kuzatish, o‘lchash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil (lokalizatsiya koeffitsiyenti, moliyaviy tahlil, statistik tahlil va b.) kabi empirik metodlar qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot ta‘minotini O‘zbekiston Respublikasi Statistika Agentligining rasmiy ma‘lumotlari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertiza markazi (RSEM), davlat va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining ma‘lumotlari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jinoiy sudlov ishlarida SBElari dastlabki tergov bosqichida ham, ishni sudda ko‘rish bosqichida ham amalga oshiriladi.

Ta‘kidlash joizki, SBEni tayinlash uchun yuridik va haqiqiy (faktik) asoslar bo‘lishi zarur.

Haqiqiy (faktik) asoslar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- taftish xulosalari va jinoiy ish materiallari o‘rtasida, shuningdek dastlabki taftish va qayta taftish xulosalari o‘rtasida ziddiyatlar mavjudligi;
- taftishchi mansabdor va moddiy javobgar shaxslar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilmaganligi;
- moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha tabaqalashtirilmagan kamomadlar to‘g‘risida taftishchi xulosalarini tasdiqlovchi hujjatlar yo‘qligi;
- taftishning mansabdor va moddiy javobgar shaxslar ishtirokisiz yoki to‘liqsiz hajmda o‘tkazilganligi: jinoiy holatning ayrim epizodlari yoritilmasdan, mansabdor shaxslardan olingan qoralama yozuvlardan foydalanilganlik;
- yetkazilgan zararni hisoblashning to‘g‘riligi yoki uni aniqlash uchun taftishchi tomonidan qo‘llanilgan metodlar bo‘yicha shubha paydo bo‘lganida;
- ayblanuvchi tomonidan taftishchining xulosalarini rad etuvchi asosli iltimosnoma taqdim etilganida va h.k.

SBEni tayinlash uchun yuridik asoslar tarmoq protsessual qonunchiligida (O‘zR JPK 172, 173-moddalari, O‘zR FPK 84, 841-moddalari, O‘zR IPK 80, 82, 83-moddalari, O‘zR MJK 299-moddasi) aks ettirilgan va surishtiruvchi, tergovchi, tergov organining rahbari yoki sudning ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarori asosida amalga oshiriladi.

Ta‘kidlash joizki, jinoiy ishda korxona va tashkilotlarning rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotnomalar, ichki nazorat xizmatining dalolatnomalari, auditorlik xulosalari, idoraviy tekshiruv natijalari va boshqa shu kabi hujjatlar ekspert xulosasining o‘rnini bosmaydi va sud-buxgalteriya ekspertizasining tayinlanishini rad etish uchun asos bo‘la olmaydi.

Fikrimizcha, SBEning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun tergov xodimi, uni tayinlashdan oldin quyidagilarni bajarishi lozim:

- SBEni tayinlash uchun asos bo‘luvchi faktlar va yuridik normalarni hamda vaqtini aniqlashi;
- jinoiy ishga doir zarur hujjatlar va materiallarni tayyorlashi;
- sud-buxgalteriya ekspertizasini o‘tkazadigan muassasani tanlashi;
- sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qarorni jinoyat-protsessual qonunchiligining talablariga muvofiq rasmiylashtirishi;




- ushbu qaror bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachisini tanishtirishi;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachisi, jabrlanuvchi tomonidan arz qilinganida ularning iltimosini qondirishi;
- sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorni jinoiy ishga doir barcha hujjatlar va materiallar bilan birgalikda sud-buxgalteriya ekspertizasini o'tkazuvchi muassasaga yoki ekspertga topshirishi;
- ekspertiza jarayonida o'zining ishtirok etishi yoki etmasligi to'g'risida ekspert-buxgalterni xabardor qilishi.

So'ngra sud-buxgalteriya ekspertizasi quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- SBE ni tayinlash to'g'risida qaror chiqarish;
- Materiallarni tadqiq qilish uchun ekspert-buxgalterga topshirish;
- Ekspert-buxgalter tomonidan ekspertiza dasturini tuzish;
- Dasturga muvofiq ekspertiza ishlarini amalga oshirish;
- Ekspertiza natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish;
- Ekspert-buxgalter xulosasini tuzish;
- Natijalar bo'yicha profilaktik tadbirlar ishlab chiqish;
- Xulosani ekspertiza tayinlagan shaxsga topshirish.

Tergovchi SBE uchun to'plangan materiallarning yetarliligiga ishonch hosil qilganidan so'ng, uni tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Tergovchining qarori majburiy protsessual hujjat bo'lib, boshqa hujjat uning o'rnini bosa olmaydi. Bunday qaror chiqarilgan paytdan boshlab sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlangan hisoblanadi.

SBE ni tayinlash to'g'risidagi qaror ikki nusxada tuzilib, tarkiban uchta bo'limdan iborat: kirish, bayon qilish va rezolyutsiya (1-rasm).



1-rasm: Sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi QAROR

Ekspert-buxgalterga hal etish uchun tergov qilinayotgan jinoiy ishning va buxgalteriya hisobining xususiyatlari hamda iqtisodiy faoliyatning turlari bilan bog'liq xilma-xil savollar qo'yilishi mumkin.

Qo'yilgan savollarning noaniq tahrir qilinishi ekspert-buxgalterga xulosa berishni rad etish uchun asos bo'la olmaydi. Tergovchi savollarni shakllantirish bo'yicha malakali buxgalterdan maslahatlar olishi mumkin. Bunda bo'lg'usi ekspert-buxgalter ham bu masalada maslahatchi bo'lishi mumkin. Bunday noprotsessual maslahatga ko'p hollarda zarurat paydo bo'ladi, chunki ekspertizaning to'liqligi, aniqligi va uni o'tkazish muddatlariga rioya qilinishi qo'yilgan savollarning to'g'riligiga bog'liq.

Ekspert-buxgalter oldiga faqat tergov olib borilayotgan ishning muayyan holatlariga taalluqli bo'lgan, muhim masalalar qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, hujjatli taftishning sifatli o'tkazilganligi, aniqlangan moddiy zararining ko'lami va paydo bo'lgan davri, buxgalteriya hisobining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va ushbu hisob ma'lumotlarining ishonchiligi, mazkur korxonadagi muayyan xo'jalik operatsiyalari va h.k.lar to'g'risidagi savollar.



Fikrimizcha, ekspert-buxgalterga qo'yiladigan vazifalarni quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq:

- mazkur korxonada buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni va tegishli qonunosti normativ hujjatlari talablariga mosligi;
- tovar-moddiy qiymatliklarning hisobdan chiqarilishi qaysi hujjatlar bilan va qanday rasmiylashtirilganligi;
- tovar-moddiy qiymatliklarning buzilishi va tabiiy kamayishi to'g'ri rasmiylashtirilganligi va hisobdan chiqarilganligi?
- muayyan xo'jalik operatsiyasi sodir etilganligining qonuniyligini hujjatlarni tahlil qilish yo'li bilan tekshirish mumkinmi?
- pul mablag'lari hisobdan chiqarilishining rasmiylashtirilishi va unda qanday huquqbuzarliklar mavjudligi;
- tovar-moddiy qiymatliklarning kamomadlari buxgalteriya hisobida aks ettirilganligi;
- ta'sischi chiqib ketishi paytida balans valyutasining haqqoniyligi, ularga to'lanishi lozim bo'lgan mulklar qiymatining adolatli baholanganligi, foydaning to'g'ri aniqlanganligi va sh.k.

Ekspert-buxgalterga quyidagi hujjatlar taqdim etilishi zarur:

- boshlang'ich hujjatlar;
- jurnal-orderlar;
- inventarizatsiya va taftish dalolatnomalari;
- guvohlar, ayblanuvchilarni so'roq qilish bayonnomalari;
- yuzma-yuz uchrashtirish bayonnomalari;
- boshqa bilimlar sohalari (tovarshunoslik, qurilishi-montaj, xatshunoslik ekspertizasi va h.k.) ekspertlarining xulosalari, norasmiy hisob hujjatlari va b.

Ekspert-buxgalter qo'yilgan savollarga javob berish uchun buxgalteriya hisobi materiallarini olib, boshqa ma'lumotlardan, xususan norasmiy hisob ma'lumotlaridan (qoralama yozuvlar, norasmiy qoldiq chiqarish dalolatnomalari, hisob operatsiyalarining qoralama yozuvlari va b.) foydalanishni rad etmasligi lozim. Odatda, ushbu hujjatlarda ham xo'jalik hodisalari aks ettirilib, ular moddiy javobgar shaxslar va boshqa shaxslarning tashabbuslari bilan tuziladi. Ular tovar-moddiy qiymatliklarning harakatlanishini, moddiy zararlar ko'lamini va ularning vujudga kelgan vaqtini, moddiy zararlar summasining mansabdor shaxslar va moddiy javobgar shaxslar o'rtasida taqsimlanishini tavsiflaydi.

SBE larini qo'shimcha va qayta o'tkazish tergov yoki sud organlarining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Ularni tayinlash va o'tkazish protsessual qonunchilik bilan tartibga solinadi. Buning uchun protsessual qonunchilikda tegishli moddalar, jumladan O'zR "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni (18-modda), O'zR JPK (176, 178-modda), O'zR FPK(194-modda) O'zR IPK (82-modda)da keltirilgan. Qo'shimcha va qayta ekspertizalar barcha protsessual normativ hujjatlarda o'xshash tarzda tayinlanadi hamda o'tkaziladi. Jinoiy ishlarda qo'shimcha va qayta ekspertizalar tergovchi (surishtiruvchi)ning qaroriga asosan tayinlanadi.

O'zR "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni 18-moddasi, O'zR JPK 176-moddasi, O'zR FPK 194-moddasi va O'zR IPK 82-moddalariga (Qo'shimcha va takroriy ekspertizalar) muvofiq ekspert-buxgalterning xulosasi yetarli darajada aniq va to'liq bo'lmaganida, yoxud ish bo'yicha oldin tergov qilingan holatlarga doir yangi savollar vujudga kelganida qo'shimcha sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlanadi.

Fikrimizcha, qo'shimcha SBE quyidagilarni batafsilroq ochib beradi:

- ekspert-buxgalter tomonidan xulosa taqdim etilganidan so'ng tergov qilinayotgan ish bo'yicha yangi holatlar vujudga kelganida (masalan, ishga taalluqli bo'lgan yangi hujjatlarning paydo bo'lishi, boshqa tashkilotlarning arxivlaridan olib qo'yilib, oldin tekshiruv(expertiza)ga taqdim etilmagan hujjatlarni o'rganish zaruratining vujudga kelishi va b.);
- qo'yilgan savolga ekspert-buxgalter tomonidan javob berilgan, lekin ekspertizani tayinlagan subyektda, SBE xulosasini o'rganganidan so'ng, oldin o'rganilgan obyektlar bo'yicha yangi savollar paydo bo'lganida.

SBE xulosasining yetarli darajada aniq yoki to'liq emasligi ekspert-buxgalterni so'roq qilish orqali bartaraf etilishi mumkin bo'lsa, agar qo'shimcha tekshiruv o'tkazish talab qilinmasa, qo'shimcha SBE o'tkazish zarurati vujudga kelmaydi.

Qo'shimcha ekspertiza birinchi (oldingi) ekspertizani o'tkazgan ekspert-buxgalter (ekspert-buxgalterlar komissiyasi)ga topshiriladi. Chunki u xulosaning asoslanganligini tekshirish uchun emas, balki tadqiqot natijalarini to'ldirish, yangi savollarga javoblar olish, oldingi xulosa mazmuni va fikrlardagi noaniqliklarni bartaraf etish uchun tayinlanadi. Qo'shimcha ekspertiza protsessual qonunchilik qoidalariga ko'ra boshqa ekspertga topshirilishi ham mumkin.

O'zR "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni 18-moddasi, O'zR JPK 176-moddasi, O'zR FPK 194-moddasi va O'zR IPK 82-moddalariga (qo'shimcha va takroriy ekspertizalar) muvofiq ekspert-buxgalter tomonidan taqdim etilgan xulosa salbiy baholanganida, qayta (takroriy) SBE tayinlanib, bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:



- ekspert-buxgalterning kompetentsizligi;
- protsessual holatlar bo'yicha uni rad qilish zarurati;
- ekspert-buxgalter xulosasining asosliligiga shubha paydo bo'lishi;
- ekspert-buxgalter xulosasi va ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar o'rtasida ziddiyatlar mavjud bo'lganida;
- ekspert-buxgalter(lar) fikrlarida ziddiyatlar mavjud bo'lganida.

Qayta SBE, xususan, quyidagi hollarda tayinlanishi mumkin, agar:

- ekspert-buxgalter tomonidan ekspertiza tadqiqoti metodlarini tanlash va qo'llashda xatolarga yo'l qo'yilganida, bu uning SBE obyektlarini aniqlashda professional kompetentligiga shubha paydo bo'lganida;
- bitta ish bo'yicha SBE ni o'tkazgan bir nechta ekspert-buxgalterlarning xulosalarida tafovutlar va ziddiyatlar vujudga kelib, ularni ekspertiza o'tkazish jarayonining o'zida tuzatish imkoni bo'lmaganida;
- SBE ni o'tkazishning protsessual qoidalari buzilgan, masalan, ekspertizani tayinlash va o'tkazish chog'ida ayblanuvchining huquqlarini kafolatlaydigan normalarga rioya qilinmaganida.

SBE ni qayta o'tkazishdan maqsad ishdagi aynan shu materiallarni (zarur hollarda esa, qo'shimcha taqdim etilgan hujjatlarni) va aynan shu uslublarni (yoxud ancha takomillashganini) qo'llagan holda dastlabki ekspertizada qo'yilgan savollarga javoblar tayyorlash uchun tadqiq qilish (tekshirish) dan iborat.

Qayta (takroriy) SBE sud, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror tomonidan tayinlanadi. Ular SBE ni takroriy tayinlashda o'z qarorlarini asoslab berishlari lozim. Xususan, bunda quyidagilar ko'rsatilishi zarur:

- birlamchi ekspertizaning qaysi jihatlari asossiz deb topilganligi;
- qanday holatlar xulosadagi fikrlarni shubha ostiga qo'yganligi;
- xulosadagi ziddiyatlar nimalarda ifodalanganligi;
- ekspertiza tadqiqotida qo'llanilgan ilmiy uslub (metod) lar nima sababdan va qanchalik takomillashmagan.

Qo'shimcha va qayta SBE birlamchi ekspertizaga o'xshash, qo'shimcha yoki qayta ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorga muvofiq tayinlanadi va o'tkaziladi. Qo'shimcha yoki qayta SBE ning xulosasi ham, birlamchi ekspertiza bo'yicha berilgan xulosaning tuzilishiga o'xshaydi. Lekin qo'shimcha yoki qayta (takroriy) SBE ni o'tkazishda, xulosaning kirish qismida birlamchi (oldingi) ekspertizalar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilinishi zarur, xususan: ular kim tomonidan va qayerda o'tkazilganligi; xulosaning raqami va sanasi; birinchi ekspertizaning ikkinchi marotaba ko'rib chiqish uchun ekspert oldiga qo'yilgan savollari bo'yicha xulosalari; qayta yoki qo'shimcha ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan, uni tayinlash sabablari.

Oldin o'tkazilgan ekspertizalarda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni to'ldirish uchun komissiyaviy va kompleks ekspertizalar ham ko'zda tutilgan. Ularni tayinlash zarurati tadqiqot obyektlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, ekspertiza jarayonida bir qancha mutaxassislar ishtirok etishi yoki har xil bilim tarmoqlarini qo'llash zarurati bilan bog'liq.

Ekspert xulosasi sud majlisida o'qib eshittiriladi va ishga doir boshqa dalillar bilan bir qatorda tadqiq qilinadi. Zarur hollarda ekspert-buxgalter ekspert xulosasi sud majlisida o'qib eshittirilganidan so'ng unga zarur tushuntirishlar berishga haqli, shuningdek sudning va ishda ishtirok qilayotgan shaxslarning qo'shimcha savollariga javob berishi shart. Bunda ekspert-buxgalterning qo'shimcha savollarga bergan javoblari ham sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi.

Komissiyaviy ekspertiza bitta ekspertiza obyekti tadqiq qilishda bir xil mutaxassislikdagi bir nechta ekspertlar ishtirokida o'tkaziladi. Komissiyaviy ekspertizalar tergovchi yoki sud tomonidan, agar ular komissiyaviy ekspertiza xulosaning har tomonlama va obyektiv bo'lishiga yordam beradi, deb hisoblasalar tayinlanadi. Masalan, bunday ekspertiza topshiriq murakkab bo'lgan hollarda tayinlanishi mumkin. Bunda mazkur ekspertiza bo'yicha shakllantirilgan savollar kengroq va batafsilroq bo'lishi mumkin.

Komissiyaviy ekspertizani o'tkazishga birinchi ekspertizani o'tkazishda ishtirok etgan ekspert ham jalb qilinishi mumkin. Uning ishtiroki materiallarni tadqiq qilish har tomonlama va to'liq, ularning tahlili va natijalarini baholash, xulosalar ishonchli va obyektiv obyektiv bo'lishiga yordam beradi. Komissiya tarkibiga kiruvchi ekspertlar o'tkaziladigan ekspertiza tadqiqotlarining maqsadi, ketma-ketligi va hajmini o'zaro kelishib oladilar. Ish jarayonida ekspertlardan bittasi ekspert-tashkilotchining majburiyatlarini bajarishi mumkin, ammo bunda uning protsessual funksiyasi boshqa ekspertlarnikidan farq qilmaydi. Komissiyaning har bir a'zosi tadqiqotlarni to'liq hajmda o'tkazib, shundan so'ng barcha ekspertlar olingan natijalarni tahlil qiladilar va agar ular bitta yagona fikrga kelsalar, bitta xulosa tuziladi va barcha ishtirokchilar tomonidan imzolanadi.

Kompleks ekspertiza o'tkazishda ekspertlarning har biri o'z vakolati doirasida ekspertiza tekshiruvlarini olib boradi. Ekspertiza xulosasida ekspertlarning har biri qaysi ekspert tekshiruvlarini va qancha hajmda olib borganligi, qaysi holatlarni shaxsan o'zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko'rsatiladi. Ekspertlarning har biri xulosaning ushbu ekspert tekshiruvlari bayon etilgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo'ladi.

Fuqarolik va iqtisodiy jarayonlarda SBE larini tayinlash tartibi ayrim xususiyatlarga ega bo'lib, ular O'zR FPK (84,194-moddalar) va O'zR IPK (80,82-moddalari) da keltirilgan. Sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash



to'g'risida Iqtisodiy sud ajrim chiqaradi, u tarkiban yuqorida keltirilgan fuqarolik sudi tomonidan chiqariladigan ajrim bilan o'xshash.

Demak, fuqarolik va iqtisodiy jarayonlarda SBE sudning tashabbusi va tomonlar (da'vogar, javobgar, tergovchi, prokuror, uchinchi shaxslar)ning iltimonomasi bo'yicha tayinlanadi. Bunda iqtisodiy jarayonda dalil keltirish mana shu shaxslarning zimmasiga yuklanadi. Shuningdek, iqtisodiy sud quyidagi hollarda o'z tashabbusiga bilan ekspertiza tayinlashi mumkin:

- 1) ekspertizani tayinlash qonunda belgilab qo'yilgan yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud taqdim etilgan dalilning qalbakiylashtirilganligi to'g'risidagi arizani tekshirish zarur bo'lganida;
- 2) qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish zarurati vujudga kelganida.

Fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha SBE tayinlashni tashkil etish jinoiy ishlardagi bilan ko'p jihatdan o'xshash, lekin ayrim farqlar ham mavjud. Xususan, fuqarolik ishlari bo'yicha SBE tayinlash asosan tovar-moddiy qiymatliklar kamomadi yoki yuridik shaxslar o'rtasidagi hisob-kitoblari noto'g'riligi, shartnomalar bajarilmasligi bilan bog'liq bo'lib, bular korxona tomonidan da'vo qo'zg'atish predmeti yoki korxona rahbariyatiga xodimlar tomonidan da'vo qo'zg'atish uchun sabab bo'ladi.

SBEni o'tkazish davlat va nodavlat sud ekspertiza muassasalariga topshirilishi mumkin. Bunda SBE nodavlat sud ekspertiza muassasasi tomonidan o'tkazilganida, uni tayinlagan organ bilan ushbu muassasa o'rtasida shartnoma tuzilishi lozim.

Demak, sud (sudya) fuqarolik ishi bo'yicha SBE tayinlashda, ekspert-buxgalter hal etishi lozim bo'lgan savollarni aniq, mufassal shakllantirishi va asoslantirilgan ajrim chiqarishi lozim. SBE tayinlash to'g'risidagi sud ajrimi o'rniga boshqa hujjat (xat, savollar ro'yxati va b.) asos bo'la olmaydi. Tomonlarda har biri va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar sud-buxgalteriya ekspertizasi o'tkazilishi jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan savollarni sudga taqdim etishga haqlidirlar. Ammo, ekspert-buxgalter tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan savollarning oxirgi variantini sud belgilaydi. Bunda sud taqdim etilgan savollardan chetga chiqish holatlarini asoslashi lozim. Shuningdek, tomonlar SBEni tayinlash to'g'risidagi sud ajrimi va unda shakllantirilgan savollar bilan haqlidirlar.

Sud barcha savollarni ko'rib chiqib, ularni o'z tashabbusiga ko'ra shakllantiradi, mazkur ishga aloqador bo'lmagan yoki ekspert-buxgalterning kompetensiyalaridan chetga chiqadiganlarini chiqarib tashlaydi. Shunday qilib, savollarni oxirgi varianti sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi sud ajrimida to'liq ko'rsatiladi.

Fuqarolik ishi ko'rilayotganida sud, tomonlarning hohish-istaklariga qaramasdan, SBEni tayinlashi mumkin. Sud ekspertizani ish ko'rilayotgan istalgan bosqichda, mazkur ish bo'yicha hukm chiqarilgunga qadar, zaruratga qarab tayinlashi mumkin.

Sudning fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha SBE tayinlash to'g'risidagi ajrimi ham uchta: kirish, bayon qilish va qaror qismidan iborat.

Ta'kidlash joizki, ekspert-buxgalter xulosasini olish talab etilayotgan savollarning yakuniy tahriri sud tomonidan belgilanadi. Bunda quyidagilar sudning kompetensiyasiga kiradi:

- a) sudning ixtiyoriga ko'ra yangi savollar kiritilishi;
- b) savollar mazmuni o'zgartirilmasdan tahrir qilinishi;
- d) jarayon ishtirokchilarining savollarini asoslantirilgan holda rad etish.

Demak, ekspert-buxgalter ekspertizani sudning o'zida yoki undan tashqarida o'tkazishi mumkin. SBE, agar ekspertiza tekshiruvlari xususiyatlariga ko'ra zarurat bo'lsa, yoxud ekspertiza predmetini sudga olib kelish imkoni bo'lmasa, tashqarida (o'sha predmet joylashgan yerda) o'tkazilishi mumkin. Ishda ishtirok etayotgan shaxslar, agar bu ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishga xalaqit bermaydigan bo'lsa, ekspertizani o'tkazish, ekspertlar yig'ilishi va xulosa tuzish jarayonlarida ishtirok etishga haqlidirlar.

Iqtisodiy sudlar amaliyotida ishlar ko'rilayotganida SBElari hozircha juda kam uchraydi. Fikrimizcha, buning asosiy sabablari, birinchidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolarimizning va yuridik shaxslarning SBEning zamonaviy imkoniyatlaridan yetarli darajada xabardor emasligi bo'lsa, ikkinchidan SBEning normativ, tashkiliy-uslubiy va kadr ta'minoti yetarli darajada takomiliga yetmaganligidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sud ekspertizasini, xususan SBEni tayinlashning normativ-huquqiy ta'imnoti va amaliyotini tadqiq qilish natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalar va takliflar shakllantirildi:

1. Ekspert-buxgalterga qo'yiladigan savollar va vazifalarning namunaviy ro'yxati shakllantirildi: korxonada buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va tegishli qonunosti normativ hujjatlari talablariga mosligi; TMZlarning hisobdan chiqarilishi qaysi hujjatlar bilan va qanday rasmiylashtirilganligi; muayyan xo'jalik operatsiyasi sodir etilganligining qonuniyligini hujjatlarni tahlil qilish yo'li bilan tekshirish; pul mablag'lari hisobdan chiqarilishining rasmiylashtirilishi va unda qanday huquqbuzarliklar mavjudligi; ta'sislar chiqib ketishi paytida



balans valyutasining haqqoniyligi, ularga to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulklar qiymatining adolatli baholanganligi, foydaning to'g'ri aniqlanganligi va sh.k. Shuningdek, ular turkumlanib, amaliyotda qo'llash taklif qilindi.

2. Qo'shimcha SBEda tergov qilinayotgan ish bo'yicha yangi holatlarni; oldin o'rganilgan obyektlar bo'yicha yangi savollarni inobatga olish tavsiya qilindi. Qayta SBEda esa birlamchi ekspertizaning qaysi jihatlari asossiz deb topilganligi; qanday holatlar xulosadagi fikrlarni shubha ostiga qo'yganligi; xulosadagi ziddiyatlar nimalarda ifodalanganligi; ekspertiza tadqiqotida qo'llanilgan ilmiy uslub(metod)lar nima sababdan va qanchalik takomillashmaganligini inobatga olish tavsiya qilindi.
3. Komissiyaviy va kompleks SBElarini tayinlashning o'ziga xos jihatlari hamda xulosa tuzish xususiyatlari ochib berildi. Fuqarolik va iqtisodiy ishlarda SBE ni tayinlashning xususiyatlarini ochib berildi: Fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha SBE tayinlash to'g'risidagi ajrimi ham uchta: kirish, bayon qilish va qaror qismiga ajratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2019. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Sud ekspertizasi to'g'risida", <https://lex.uz/docs/1633102>.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi [2020-y. 1.07 gacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan] – T.: "Yuridik adabiyotlar Publich", 2020-y. – 824 b. <https://lex.uz/docs/111460>
4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: <https://lex.uz/docs/3523891>
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi: (2016-yil 1.04 gacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). –T.: "Adolat", 2016-y. -400 b. www.lex.uz.
6. O'zbekiston Korruptsiyani qabul qilish indeksida 14 pog'ona yuqoriladi, <https://www.gazeta.uz/uz/2023/01/31/cpi-2022/>.
7. Звягин С. А., Стрыгина И. Е. Судебно-бухгалтерская экспертиза: особенности организации и проведения в современных условиях // Судебная экспертиза. 2017. № 1. С. 16—17.
8. Еремин С. Г. Судебная бухгалтерия : учебник. М. : ЦОКР МВД России, 2005. С. 336.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.